



Received: July 2, 2024
Accepted: September 21, 2024
Available online: September 25, 2024

Shalola Davletova

Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Shalola Davletova

PhD Student
Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek
Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: shaloladavletova96@gmail.com
ORCID iD: 0009-000-0657-1713

ROBERT BYORNSNING IJOD YO'LI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqoladan maqsad – mashhur shotland shoiri Robert Byorns biografiyasini uning she'rlari bilan hamohanglikda yoritib berish, sermahsul ijod yo'li bilan o'quvchini yaqindan tanishtirish, shoir kechinmalarini ko'rsatishdan iborat. Ijodkorning lirik asarlari uning biografiyasini o'rganishda muhim omil hisoblanadi.

Maqolaning vazifasi – shoir yashagan makon, zamon va muhitning uning badiiy hayotiga ta'sirini aniqlash; she'riy asarlari orqali uning hayot yo'llarini yanada chuqurroq yoritib berish, lirik qahramonning badiiy olamini o'rganib tashqi dunyosi bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Maqolada biografik, psixologik, psixoanalitik, ijodiy-genetik sotsiologik hamda tarixiy-madaniy tahlil metodlaridan foydalanish orqali yuqoridagi vazifalar ma'lum darajada amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, R.Byorns she'rlarida uning axloqiy fikrlari keskin va yorqin mujassamlashgan deyish mumkin. Bu qarashlar uning she'riyatining ajralmas qismi bo'lib, u mohirlik bilan yaxshi va yomonni, oq va qorani ajratib ko'rsatadi, kishilarni ezgulikka chorlaydi. R.Byorns o'z yurtiga bo'lgan muhabbati tufayli shotlandlarning xalqiga sadoqati hamda vataniga bo'lgan sevgi tuyg'usini asarlari orqali namoyish etadi. Uning biografiyasini va ijodini adabiy tanqid nuqtayi nazaridan o'rganish xalqaro munosabatlarni yaxshilash, madaniy almashinuvni rivojlantirish hamda jahon sivilizatsiyalari o'rtasidagi o'zaro ta'limni amalga oshirishga ma'lum darajada hissa qo'shishi mumkin. Shoir turli mavzularda ijod qilgan. uchratish mumkin. Vatanparvarlik ruhi shoir she'riyatining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, tushkunlik, o'lim,

THE JOURNEY OF ROBERT BURNS AS A POET

ABSTRACT

The primary aim of this research is to explore the life of the renowned Scottish poet Robert Burns in connection with his poetry, to introduce readers to his extensive body of work, and to convey the poet's experiences. The article discusses how the poet's poetry relates to his life and emphasizes the significance of studying his biography concerning his lyrical works.

Our article aims to explore the impact of the poet's living environment, time, and location on his poetic works. We seek to gain insight into the poet's life experiences through his poetry, understand the inner world of the lyrical hero, and connect it to his external world. To achieve this, we employed biographical, psychological, psychoanalytical, creative-genetic sociological, and historical-cultural analyses.

Based on the research findings, his moral beliefs are clearly evident in his poetry. These views play a significant role in his work, as he effectively distinguishes between good and evil, urging people to do good. As a Scottish poet, he expressed his love for his country, demonstrating the Scottish ideal of loyalty to its people and love for the homeland. Analyzing R.Burns' biography and his work from a literary standpoint can contribute to improving international relations, promoting cultural exchange, and fostering mutual education among nations. While his poetry was characterized by patriotism, themes such as sadness, death, poverty, hunger, longing, and dreams were also prevalent. Although he primarily wrote in the Scottish dialect, he also produced many poems in pure English, cementing his poetry as an integral part of many readers'

qashshoqlik, ochlik, judolik, sogʻinch, armon kabi motivlar ham sheʼrlarga mazmun bagʻishlab, ayni tuygʻularning inson qalbiga yetib borishiga xizmat qiladi. Asosan shotland dialektida ijod qilgan shoir ingliz tilida ham sheʼrlar yozib, muxlislari qalbidan joy olgan.

Biz R.Byornsning biografiyasini oʻrganib, mashaqqatli, nochorlikda oʻtgan umri uning deyarli barcha sheʼriy asarlariga taʼsir koʻrsatgan, degan xulosaga keldik. Binobarin, lirik shoir hayotining har bir pallasida oʻz his-tuygʻularini sheʼrlari orqali ifodalaydi. U juda qisqa umri davomida oʻzidan oʻlmas sheʼriyat qoldirishga ulgurdi.

Kalit soʻzlar: biografiya, bolalik yillari, ballada, qoʻshiq, sheʼriyat, jamiyat, oʻlmas sheʼriyat, vatanga muhabbat, hayot yoʻli, mashaqqat.

KIRISH

Jahon adabiyoti namoyondalari asarlarini oʻrganish, tahlil qilish va oʻzbek tiliga tarjima qilish adabiyotimiz oldida turgan ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Robert Byorns (1759–1796) ijodi bilan oʻzbek oʻquvchisi ham yaxshi tanish. Kitobsevarlarning keng jamoatchiligi tomonidan “mingyilliklar odami” [Dougal, 2012; 1] deya taʼriflanayotgan shoirning sheʼr va dostonlari oʻzbek tiliga turli davrlarda tarjima qilingan. Shoir sheʼrlarining dastlabki tarjimalarini Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, taniqli shoir Muhammad Ali boshlagan edi. Rus tiliga tarjima qilishda S.Marshakning hissasi katta. Jumladan, mustaqillik yillarida oʻzbek tarjimonlaridan Begoyim Xolbekova, Dinora Sultonova va Mohinur Abdusamatova R.Byorns sheʼrlaridan qilgan tarjimalarini sheʼriy toʻplamlarda eʼlon qildilar [Obloqulova, 2015].

R.Byornsning serqirra ijodi hamda biografiyasini oʻrganish ishlari turli davrlarda keng miqyosda amalga oshirildi va hanuzgacha dunyo adabiyotshunoslarining diqqat markazidagi dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etayotgan tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi, ular ijodkorning boy poetik meʼrosini chuqur tadqiq etishdagi muhim manbalarning yaratilishiga asos boʻldi. Jumladan, A.Kanningem [Burns & Cunningham, 1875], R.X. Kromek [Burns & Cromek, 1808] va R.Krouford [Crawford, 1997] ijodkor badiiy asarlarining nashr ishlari bilan, N.K. Vid [Vid, 2011] Robert Byorns sheʼrlarining boshqa tillarga, xususan, rus tiliga qilingan tarjimalari bilan shugʻullandilar. Shuningdek, J.R. Karruters [Carruthers, 2017] R.Byorns biografiyasi hamda shaxs sifatidagi individual xarakteristikasining shoir ijodiga taʼsir jarayonlarini ochib berish ishlarini amalga oshirdi.

Shoir biografiyasining uning ijodiga taʼsirini oʻrganish uchun biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik: shoir biografiyasini chuqur oʻrganish; sheʼriyatini tahlil qilish; asarlaridagi motivlar, asosan, tushkunlik hamda oʻlim kabi eng koʻp

libraries.

After learning about the poet’s biography, we concluded that his difficult life in poverty had a significant impact on almost all of his poetic works. A lyric poet expresses his feelings through his poems at every stage of his life.

Key words: biography, childhood, ballad, song, poetry, society, immortal poetry, love to motherland, life path, challenges.

uchraydigan unsurlarning yuzaga kelish sababini lirik qahramonning biografiyasi bilan bog'lab izohlash, shoir she'riyatidagi boshqa xususiyatlarni aniqlash orqali uning hayot yo'lini chuqurroq yoritib berish.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot biografik, ya'ni shoir she'riyatini uning hayot yo'li kontekstida o'rganish orqali amalga oshirildi. Ijodkor shaxsiyati uning asarlarida o'z aksini topadi va shu sababli undagi ayrim unsurlar muallif biografiyasi kontekstida oydinlashadi. Shunga ko'ra, R.Byornsning she'rlari tahlilida biografik metod yetakchilik qildi. Darhaqiqat, uning she'riy asarlaridagi obrazlar to'qima emas, ular shoirning zamondoshlari, do'stlari va yelkadoshlaridir (Tomas Mur, Devid Sillar va boshq). Biografik metod bilan bir qatorda psixologik hamda psixoanalitik metodlardan foydalangan holda ijodkorning bolaligi, u shakllangan muhit, bir so'z bilan aytganda, hayotiga oid aniq faktik materiallar hamda kichik detallar ham e'tibordan chetda qoldirilmadi (masalan, R.Byornsning satirik shoir bo'lishiga turtki bo'lgan omillardan biri – bolalik chog'laridan otasining zahmatlarini ko'rib o'sganligi kabi).

She'rlarning g'oyaviy-mafkuraviy tomonlari tahlil qilinarkan, sotsiologik tahlil metodidan foydalanildi. Bunda hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayonlari (R.Byornsning otasi unga sevgilisiga uylanishga yo'l qo'ymaganligi va shu tariqa uning "*A red, red rose*" she'ri yozilganligi) hamda badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlari ochib berildi. Ma'lumki, badiiy asar muayyan madaniy-adabiy an'analar zaminida yaratiladi, tarixiy-madaniy tahlil metodi orqali R.Byorns asarlaridagi milliylik va an'anaviylik ochib berildi. Uning "Halloween" she'ri ham aynan shunday tarixiy an'anaviylik kasb etgan asarlaridandir. She'rdagi obrazlar hamda boshqa poetik xususiyatlar she'ring milliy koloritini ta'minlab beradi. Natijada she'ring adabiy-madaniy kontekst bilan bog'liq ma'no qirralari ochilib, o'quvchida u yozilgan makon va zamonga daxldorlik hissini paydo qiladi.

Shuningdek, shoir she'rlaridagi voqeliklar hamda uning hayoti taqqoslash metodi orqali qiyoslanib shoirning ijodiy va hayotiy faoliyatidagi umumiy va xususiy jihatlar aniqlandi. Shoir biografiyasidagi tub burilishlar va ularning lirik qahramon faoliyatiga ta'siri (sintez) ko'rib chiqildi. Qolaversa, tadqiqotda umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish kabi metodlar ham qo'llanilib, yuqorida olingan natijalardan xulosalar chiqarildi. Shoir ijodiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoit, u yashagan muhit, davr va ijtimoiy tuzum tarixiy metod orqali ochib berildi.

R.Byorns hayoti va ijodi bo'yicha dunyo bo'ylab ko'plab tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Mantiqiylik metodi asosida ularning izlanishlari ko'zdan kechirilib, tarixiy faktlarga tayangan holda shoir hayotidagi muhim voqealarning ijodiga ta'sir jarayonlari o'rganib chiqildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olib borilgan izlanishlarimiz natijasida R.Byorns yashagan ijtimoiy muhit, siyosiy vaziyat hamda iqtisodiy qiyinchiliklar uning lirikasiga salmoqli ta'sir o'tkazganini aniqladik. Shoir biografiyasini yanada batafsil yoritishda biz uning ayrim she'rlari tahliliga yuzlandik va ular orqali shoir yashagan ijtimoiy-maishiy, siyosiy-

tarixiy sharoit va hayotining quyidagi pog‘onalarini yoritib berishga harakat qildik:

1. Shoir tug‘ilgan va yashagan uyi tasviri (“Vision” she’ri orqali).
2. Bolalik yillari (“*Twa dogs*” majoziy ertagi orqali).
3. Ilk she’riy asarlari va do‘stlik rishtalari (“*The Epistle to David Sillar*”).
4. Shoir ustozlarining uning tafakkuriga hamda she’riyatiga ta’siri (“*Halloween*” she’rining yaratilishi jarayoni).

5. Shoir ijodiga uning otasi hamda onasining ta’siri (“*Man was made to Mourn*” she’rining yaratilishi jarayoni).

6. Shoir kundalik hayotidagi voqealar hamda do‘stlarining ijodiga ta’siri (“*The Death and dying words of Poor Mailie*”, “*The jolly beggars: Cantata*” asarlari yaratilishi jarayoni).

7. Sevgi iztiroblari (“*A red, red rose*” she’ri orqali).

Manbalarda yozilishicha, shotland shoiri R.Byorns 1759-yilning 25-yanvarida Dun (*Doon*) daryosi sohilida, Ayr grafligidagi Allovey ta’qib qilingan cherkovi (“*Alloway’s Auld haunted kirk*”) yaqinidagi loy devorli kichik uyda tug‘ilgan. Uy shunchalik nochor ahvolda ediki, shamol, bo‘ron yoxud boshqa kuchli tabiat hodislariga dosh bera olmasdi. R.Byorns keyinchalik o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyi portretini mashhur “*Vision*” (“*Tasvir*”) she’rida mohirona chizadi:

*There, lanely, by the ingle-cheek,
I sat and ey’d the spewing reek,
That fill’d, wi’ hoast-provoking smeeek,
The auld clay biggin’;
An’ heard the restless rattons squeak
About the riggin’.
All in this mottie, misty clime,
I backward mused on wastet time,
How I had spent my youthfu’ prime,
An’ done nae thing,
But stringin’ blethers up in rhyme,
For fools to sing [Burns & Currie, 1859; 236].*

Ushbu she’r nafaqat shoir uyining tasviri, balki shu faqirona maskan portreti vositasida juda murakkab his-tuyg‘ular og‘ushidagi lirik qahramonning o‘y-xayollarini yoritib beradi hamda o‘zini baxtli odamlar hech qachon tushuna olmaydigan tushkunlik ruhida namoyon qiladi. Shoirning ukasi Gilbert Byorns bu haqida shunday deydi: “Bu uydan otamning qurilish borasidagi didini yaxshi deb o‘ylashingiz mumkin, agar shoirning “*Tasvir*”dagi ta’rifi (bu butunlay chiroyli rasm)ni otamiz qurgan uy haqida deb o‘qigan bo‘lsangiz. Keling, sizga yaqindan ta’riflab beray: uyning bir tomonida oshxona, ikkinchi tomonida kamin va mo‘risi bor xonadan iborat edi. Otam oshxonada uy bilan bir xil materialdan yashirin karavot qurgan, uning yonida kichkina shkafi bo‘lib, tashqarisi va ichkarisi ohak bilan bo‘yalgan, u toza va shinam ko‘rinishga ega edi” [*Chambers*, 1856; 9].

*Olov atrofida o'tirib yolg'iz,
Qora tutuniga tashladim nazar;
Yo'talni qo'zg'atar u ham o'shal kez,
Loy esa qadimiy kaminni bezar;
Tinglayman bezovta sichqonlar shu on,
Chiyillar bo'ylashib mo'riga tomon.*

*Bu sirli, tutunli manzara ichra,
Xo'rsindim besamar umr, vaqt uchun:
Yoshligimni qanday yashadim deya,
Arzirli hech narsa qilmadim nechun,
Bema'no so'zlarni qilib qofiya,
Ahmoqlarga aytdim qo'shiq, madhiya.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Shoir ushbu misralarda tug'ilgan, yashagan uyining sirli manzarasini chizar ekan, bir yo'la o'tgan hayotini tahlil qiladi, umri bekor o'tayotganiga kuyunadi.

R.Byorns tug'ilgan kundagi kuchli bo'ron otasining faqirona kulbasini vayron qilgan edi. Ammo bo'ron ham go'yoki buyuk shoirning kelgusi sharafli hayot yo'liga qilingan tabiat ishorasi edi. Shoir uch o'g'il va uch qizning eng kattasi bo'lib, otasi Uilyam Byorns dehqon edi. To'ng'ich farzand Robert juda bilimli, vazmin odam bo'lib ulg'ayadi [Cunningham, 1855]. Onasi mehribon, taqvodor va quvnoq ayol bo'lgan. U uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lib, o'z yurtining qo'shiq va balladalarini aytib, hayotning achchiq lahzalarini shirin qilishni yaxshi ko'rardi. Ammo ularning hayoti qiyinchilikda o'tadi. "Men juda kambag'alning o'g'li bo'lib tug'ilganman. Olti yoki yetti yoshlarimda otam Ayr mahallasidagi bog'bon edi" [Chambers, 1856; 2], deya eslaydi shoirning o'zi.

Bir necha yillik muvaffaqiyatsiz urinishlardan keyin otasi U.Byorns o'zining inqirozga uchragan fermasidan voz kechish va Tarbolton cherkovidan o'n mil uzoqlikdagi Lokli (Lochlea) zaminida boshpana izlashga majbur bo'ladi. "Robert Kirkosvaldda yozgi ta'lim olish baxtiga muyassar bo'ladi. Fermaga qaytib, u xalq shoiri yoki o'zi aytganidek, "Shotlandiya shoiri" bo'lish uchun katta ishtiyoq bilan "Qish" va boshqa dastlabki she'rlarini yaratadi". O'sha uzoq davom etgan beadablik va zamonasining johil qiyofasini shoir "Twa Dogs" asarida yoritib beradi. Uning o'zi bu haqida shunday deydi: "Otamning saxovatli xo'jayini vafot etdi, fermaning halokati boshlandi va biz yana baxtsizlikning domiga tushdik. Men bu holatni "Ikki it" ("Twa dogs") nomli ertagimda yoritganman" [Chambers, 1856; 4]. Bu majoziy ertak Sezar (Caesar) va Lues (Luath) laqabli itlarning dialogidan iborat bo'lib, o'z suhbatida ular jamiyat ikki – boy va kambag'al tabaqalarga ajralgani hamda davrning boshqa jirkanch qirralarini ochib tashlaydi:

*Caesar:
I've often wonder'd, honest Luath,
What sort o' life poor dogs like you have;*

*An' when the gentry's life I saw,
What way poor bodies liv'd ava* [Burns, 1786; 1].

Chetelda o'ziga to'q muhitda katta bo'lgan Sezar ushbu nutqida kambag'allarning yashash tarziga achinishini suhbatdoshi shotlandiyalik oddiy shudgorchining iti Luesga izhor etadi.

*Doim hayratdaman, samimiy Lues,
Sendek faqir itlar hayot tarziga;
Hamda boy janobning turmushin ko'rib,
Qalamim shayladim qashshoq arziga.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Lirik qahramonning mashaqqatli bolalik yillari va achchiq alamli taqdirini Luesning tilidan aytilgan ushbu parchalardan anglash mumkin:

*Trowth, Cæsar, whyles they're fash't enough
A cotter howkin in a sheugh,
Wi' dirty stanes biggin' a dyke,
Baring a quarry, and sic like;
Himself, a wife, he thus sustains,
A smytrie o' wee duddie weans,
An' nought but his han' darg, to keep
Them right and tight in thack an' rape.
An' when they meet wi' sair disasters,
Like loss o' health, or want o' masters,
Ye maist wad think a wee touch langer
An' they maun starve o' cauld and hunger;
But, how it comes, I never kenn'd yet,
They're maistly wonderfu' contented:
An' buirdly chiels, an' clever hizzies,
Are bred in sic a way as this is* [Burns, 1786; 1].

Shoirning hayoti ham ertakda ta'riflangan nochor odamlar hayoti bilan bir xil bo'lgan. Ushbu misralar esa lirik qahramonning achchiq va mashaqqatli hayot yo'lini tasavvurimizda jonlantiradi:

*Balki ular ba'zan qiynalishar ko'p:
Ariq qazar dehqon dala hovlida,
Kir toshlardan baland devorlar qurib,
Tozalash ishlari bo'lsin mayli-da;
O'zi va ayoli kun ko'rar shunday,
Yirtiq-yamoq kiyar bolalari ham,
U shunday ishlaydi ilinji faqat,
Saqlashdir oilani pok va mustahkam.
Boshga g'am-tashvishlar tushar har safar,*

*Kasal bo'lishar, lek shifokor ham yo'q,
To'xtamay bu davom etaversa gar,
O'ldirishi mumkin ochlik va sovuq.
Ammo taqdiriga deyshimas "nechun",
Ular hayotidan judayam mamnun;
Zabardast yigitlar va dono ayol
Xuddi shu muhitda topishar kamol.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Misralardan, R.Byornsning bolalik yillari aynan shu kabi zahmatlarda o'tgan bo'lsa-da, u o'zi she'rida ta'kidlaganidek, yurtining zabardast shoiri darajasiga yetadi. Kambag'allik va og'ir mehnatda ezilgan otasi oilasini pok va mustahkam saqlash vazifasini juda a'lo darajada bajarib, komil farzandlar o'stirish baxtiga muyassar bo'ladi. U.Byorns qattiq mehnat qilib hayotini o'nglashga harakat qiladi. U jismonan baquvvat va sog'lom aql egasi bo'lib, yosh bo'lishiga qaramay, boshdanoq qo'liga mehnat qurollarini olib ulgurgan uch o'g'lining ishtiyoqi va hayotga muhabbatini oshirib boradi. Ammo uning harakatlari o'zini oqlamay, fermadan olingan foyda juda ham kam bo'laveradi. Yer egalari va fuqarolar orasidagi masofa tobora uzoqlashib, oddiy xalq tobora qashshoqlashib boradi. Shoirning bolalik va otasining inqiroz yillari uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmagan.

Shu og'ir va sinovli kunlarda ham shoirning otasi din va ruhiy ta'limot zarurati haqida unutmadi. Har hafta yakshanba kuni Loklida ma'rifatli dehqonlar singari ibodat qilib, Bibliya o'qishga odatlangan edi. Ular Bibliya o'qishar va tushuntirishlar olib borishar, og'ir va qorong'u kunlardagi sabr-toqat yoki ruhiyatda kechadigan histuyg'ularni muhokama qilishar hamda turli xalqlarning afsonaviy buyuk o'tmishiga nazar tashlashar, bu uning sevimli mashg'uloti edi. Unga bu ishlarda, avvalo, Dun yaqinida Allovey tegirmonidagi maktab o'qituvchisi, keyin Lokli hamda besh nafar qo'shni dehqon bolalariga arifmetika, grammatika fransuz va lotin tillaridan ta'lim beradigan Jon Murdok (John Murdoch) yordam berardi. Ilmga tashna, dono, o'tkir mulohazali, she'riyatga oshno Murdok vazifasini juda yaxshi bajaradi: u Robertdagi o'zgacha qobiliyatni sezadi, unga she'riyat, lotin hamda fransuz, ingliz tili grammatikasini o'rgatdai. Byorns o'sha paytdayoq o'z vataniga mehri boshqacha bo'lib, Shotlandiyani sevar, uning sharafini ulug'lar edi. Undagi vatanparvarlik hissi yurtining ozodlik uchun kurashgan qonli janglari haqida o'qib yanada kuchaydi. "Shotlandiya", – deydi u, "mening qon tomirlarimda oqadi va abadiy uyquga ketgunimcha shu yerda qaynaydi" [Cunningham, 1855].

Otasi va ustozlarining mehnati shoirdagi jo'shqin iqtidorni yanada rivojlantirib, o'z mevalarini bera boshladi. R.Byorns birin-ketin o'lmas she'riy asarlarini yozar va birinchi bo'lib o'z yaqinlariga o'qib berar edi. Shunday jarayonlarning biri haqida uning ukasi G.Byornsning qimmatli maktubidan iqtibos keltirishimiz mumkin: "Uning ilk she'rlari orasida "Devidga maktub" bor edi. Robert hech qanday rejasiz yozar edi she'rlarini. Har qanday narsa uni ta'sirlantirishi, ongida iz qoldirib, uni she'r yozishga undar, mavzu ham topardi. U birdan ilhomlanib, o'ziga yoqadigan ikki-uch

bayt xayoliga quyilib kelsa, she'rdagi asosiy qism va yakunlovchi misralar haqida o'ylandi. 1781-yilning yozida, dalada ishlayotganimizda, u menga bu maktubning asosiy qismini aytib berdi. Robertning shoir bo'lish haqidagi orzusi shu kunlarda tug'ilgan bo'lsa kerak. Menga she'riy maktub juda yoqdi va uning nashr etishga arziydigan she'r bo'lganini aytdim" [Chambers, 1856; 103]. Darhaqiqat, shoirning she'riy maktublari eng ajoyib ijod mahsullaridan hisoblanadi. Ular turli kayfiyatda yozilgan va lirik qahramon gohida sho'x yoki g'amgin, beparvo yoki jiddiy tusga kirib, maslahat berish, muhtojlikdan nolish, odob-axloqni targ'ib qilish, boylarni masxara qilish kabi motivlarga ergashadi. "Devid Sillerga maktub" ("The Epistle to David Sillar") (1854) she'ri ana shunday kompozitsiyaning birinchisidir: "Shoirning aytadigan muhim gapi, jiddiy savoli ham yo'q, u faqat o'zining quvonchli yoki qayg'uli tuyg'ularini bildirishi kerak, bularni kim bilandir bo'lishadi va muhokama qiladi" [Cunningham, 1855]. Nafislik, shu bilan birga, kompozitsiyaning matndagi universallik shoirning didi va qobiliyatiga yaqqol dallilardir. She'riy maktubdan anglashiladiki, u o'zining qishloqdagi do'stlari orasida Sillarning aql-zakovatini eng yuqori deb baholaydi, unga ko'proq hurmat ko'rsatib, boshqalarga qaraganda ko'proq takalluf bilan murojaat qiladi. Darhaqiqat, shoir zamondoshlari orasida Devid ma'lumoti yaxshiroq, she'riyatga oshno do'sti edi.

*It's hardly in a body's power
To keep, at times, frae being sour;
To see how things are shar'd;
How best o' chieles are whiles in want.
While coofs on countless thousands rant,
And ken na how to wair't;
But Davie, lad, ne'er fash your head,
Tho' we hae little gear,
We're fit to win our daily bread,
As lang's we're hale and fier:
"Muir spier na, nor fear na,"
Auld age ne'er mind a feg,
The last o't, the warst o't,
Is only but to beg [Burns & Currie, 1843; 166].*

"Devidga birinchi xat" ("The first epistle to Davie") she'ridan olingan jumllalarda shoir:

*Til achchiq kalomni ixtiyor etar,
Toki hayot bizni xor-u zor etar,
Kimdadir zoriqish, kimda to'qchilik,
Eng yaqin do'stlarni ezar yo'qchilik,
Halovatda yashar minglab ahmoqlar,
Ularga hayf boylilik, hayfdir xazina,
Lekin Devid, do'stim, chekmagin ohlar,
Boyligidan mosuvo sen va kamina;*

*Kunimizni ko'rsak amallab yetar,
Tanamiz, ongimiz bo'lsin salomat;
Boylikni odillar malomat etar,
Unutma, u emas eng oliy xursandchilik;
Eng so'nggi pog'ona, eng dahshatlisi,
Faqat tilanchilik, –*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

deya ta'kidlaydi. Demak, shoir shuncha qiyinchilik va zahmatlarga qaramasdan, shukr qiladi, eng yomoni – “tilanchilik” deya do'stiga xitob qilib, uni ham boriga shukr qilmoqqa chaqiradi.

Lepreik, Smit va Renkinga (Lapraik, Smith, Rankine) maktublari ko'proq an'anaviy yoki ijtimoiy kayfiyatda bo'lib, shoir an'anaviy uslubidan zulmat pardasini olib tashlaydi va oliy darajadagi qobiliyati hamda aql-zakovatni namoyish etadi. Boshqa shoirlarning maktublari shon-shuhratlari uchun murojaat qilingan kishilarning martabasi yoki obro'siga bog'liq, R.Byorns asarlarida taniqli bo'lmagan, oddiy insonlar tarannum etilgan. Sillar qishloq maktabining o'qituvchisi, Smit kichik do'kon sotuvchisi va Rankin dehqon bo'lib, hazilni yaxshi ko'rishar edi. Aynan shu odamlar, ayrim istisnolardan tashqari, shoirning eng yaxshi asarlari yozilgan dastlabki yillardagi haqiqiy do'stlari, yagona adabiy sheriklari edi. 1781-yilning may oyida shoir tuzgan klubga a'zo bo'lgan Devid Sillar R.Byorns haqida qimmatli ma'lumotlar beradi: “U doimo kitob ko'tarib yurar, ish bilan band bo'lmagan vaqtida o'qir edi. Ovqatlanish stolida o'qish odati edi. Lokliga qilgan safarlarimning birida, Robert tushlik vaqtida “Tristram Shandy” kitobini o'qishga shunchalik kirishib ketgan ediki, “Afsus, bechora Yorik” degan xitobidan qo'lidagi qoshig'i ham pastga tushib ketgandi. Robert shunday edi, uning atrofida gilar ham” [Chambers, 1856; 47].

R.Byorns shijoat bilan ta'lim olib, shoir darajasiga ko'tarildi. “Skotning (Scott) “zoti past (qul)” shoir deb ta'kidlashiga qaramasdan, “she'riyat qiroli” deya ulug'langan R.Byorns XIX asrda Shotlandiya milliy madhiyasi kabi yurtining ajralmas qismiga aylandi” [McDowall, 1867; 733]. “Men bolalik yillarimdagi”, – deydi u Murega (Moore), “afsona va rivoyatlardan boy bilimga ega bo'lgan keksa ayol (Jenny Wilson) dan qarzdorman. Unda ertaklar, qo'shiqlar, shayton va iblislar, arvoqlar, farishtalar, afsonaviy elflar, jodugarlar, ajdaholar, va boshqa ilohiy kuchlar haqidagi afsonalarning eng katta xazinasini bor edi. Bu menda she'riyatning urug'lari bo'y cho'zishiga sabab bo'ldi. Ammo u mening tasavvurimga shunchalar kuchli ta'sir qildiki, men ba'zan tungi sayrlarimda shubhali joylarda ogohlik bilan yuraman” [Cunningham, 1855]. Yosh shoir ona yurtining milliy an'analarini o'rganadi, Jenni Uilsonning maktabidagi ta'limning ahamiyati beqiyos bo'lib, uning ertaklari shoirning ijodiga o'zgacha rang beradi va ajoyib asarlarini yaratadi. “Hellouin” (“Halloween”) shu kabi afsona va miflardan ozuqa olib yozilgan she'riy asarlaridan biri edi:

*Upon that night, when fairies light
On Cassilis Downans dance,
Or owre the lays, in splendid blaze,*

*On sprightly coursers prance;
Or for Colean the rout is ta'en,
Beneath the moon's pale beams;
There, up the Cove, to stray an'rove
Amang the rocks an' streams
To sport that night [Burns, 1854; 188],*

degan satrlari tarjimasini o'zbek tiliga quyidagicha ifodaladik:

*Bu tun farishtalar taratishar nur,
Kassil yerlarida raqsga tushib,
Keng yaylovlar uzra topishar huzur,
Uchqur otlar bilan teng yugurishib;
Yoki Koleanga olishadi yo'l,
Oyning xiragina nuri ostida;
Ko'rfaz tepasidan silkishadi qo'l,
Daryolar kecharlar, qoya ustida,
Tunga xursandchilik yog'dirishar mo'l.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Shoir “*Hellouin*” she’rida aynan Jenni Uilsondan eshitgan afsonalardagi sirli mavjudotlar, sehrli olam portretini chizadi. Shotlandiyaliklarning sevimli bayrami Hellouinning ildizlari juda qadimiy bo‘lib, an’anaviy urf-odat, rasm-rusum sanalib, odamlar intiqib kutadigan, sevib nishonlanadigan kun hisoblanadi.

Shoir ilm olish bilan bir qatorda, dalada og‘ir mehnat ham qilardi, dalani shudgor qiladimi yoki ishlov beradimi, qo‘shiqqlar to‘plamini yonida saqlar va charchab dam olish chog‘ida ularni qunt bilan o‘qirdi. Uning onasi ham o‘zi bilmagan holda shoirga ilhom berardi, “Hayot va inson umri” (“*The Life and Age of Man*”) (1855) nomli mavhum, ammo ibratli balladani aytib yoki kuylab berishni sevardi. R.Byorns “Inson motam tutish uchun yaratilgan” (“*Man was made to Mourn*”) qo‘shig‘ini yozganida shu diyonat zanjiri va tasavvur uni ilhomlantirgan desak, adashmagan bo‘lamiz.

*O Death! the poor man's dearest friend
The kindest and the best!
Welcome the hour, my aged limbs
Are laid with thee at rest!
The great, the wealthy, fear thy blow,
From pomp and pleasure torn!
But, oh! a blest relief to those
That weary-laden mourn [Burns & Cunningham, 1859; 203].*

O‘lim kimlargadir dahshat soladigan muqarrar qismat. Ammo hayot qiyinchiliklari-yu adolatsizliklaridan charchagan lirik qahramon uni “eng yaxshi va eng qadrli do‘st” deya ta’riflamoqda. Inson o‘limidan so‘nggina abadiy huzur topishi ma’nosidagi misralari ham lirik qahramonning hayotdan charchagan ruhiyatini aks

ettiradi.

*O'lim! Insonlarga eng qadrli do'st,
Eng mehribon hamda eng arzirli do'st!
Xush kelibsan, endi qarigan tanam,
Sening ila olar orom, dam.
Boy-u kambag'alga qo'rquvsan birdek,
Suymaysan hashamni, zavq-u shavqni ham,
Lekin, oh, berasan qushdek yengillik,
Baxtsiz, qop-qora motam!*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Bolalikdagi ilk an'anaviy saboqlardan so'ng R.Byorns Irvayn (Irvine) akademiyasida o'qiydi. Lokli makkajo'xorining yaxshi navini bermasa ham, zig'ir uchun juda yaxshi deb hisoblangan va bu mahsulotni yetishtirish otasi va ukasi G.Byornsga topshirilgan bo'lishiga qaramasdan, u 1781-yil yoz o'rtalarida Irvaynga onasi bilan qarindosh bo'lgan bir odam boshchiligida zig'ir ustasi hunarini o'rganish uchun yuborilgan. Biroz avval u yozning bir qismini Kirkosvalddagi maktabda o'tkazgan, yer o'lchash hamda yer bilan bog'liq ilmlarni o'rgangan, u yerda kontrabandachilar bilan uchrashgan va oy yog'dusida yosh va go'zal qiz bilan sayr qilishdan zavqlangan. Irvaynda u kunduzi o'z sohasi bo'yicha bilim olish uchun mehnat qiladi va kechasi bezorilarga qo shilib, ular bilan sharob ichishni va Loklida taqiqlangan mavzularda erkin suhbatlashishni o'rganadi. Uning yashash uchun bitta kichkina xonasi bo'lib, haftasiga bir shilling berardi, go'shtni kamdan-kam yer, ovqati asosan otasining uyidan jo'natilgan jo'xori uni va kartoshkadan iborat edi. Otasiga yo'llagan maktubida sofflik va uslubning soddaligi bilan o'zining ruhiy va jismoniy suratini shunday tasvirlaydi: "Hurmatli janob, men sizni yangi yil kuni ko'raman deb o'ylaganim uchun sizga xat yozmagan edim. Lekin ish shunchalik og'ir bo'ladiki, men bu vaziyatda yangi yil kuni ham uyga ketolmayman. Mening sog'ligim deyarli oldingidek, faqat uyqum biroz tinchroq, garchi men baquvvat bo'lmasam ham, umuman olganda, ahvolim boshqalarnikidan yaxshiroq. Ammo asablarimning osoyishta emasligi ongimni juda zaiflashtirdi. Men o'tmishdagi istaklarimni ko'rib chiqishga ham, kelajakka umid qilishga ham jur'at eta olmayman, chunki ko'ksimdagi eng kichik tashvish yoki bezovtalik ham butun tanamga juda jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Darvoqe, ba'zan ruhim biroz yengillashganda, men kelajakka umid qila boshlayman, lekin mening asosiy va ustivor burchim – axloqiy va diniy amallardir. Men uzoq yasharman, ehtimol, yaqinda bu zahmatli hayotning barcha og'riqlari va bezovtaliklari bilan abadiy xayrlasharman degan o'ydanda juda charchadim... Meni qashshoqlik va qorong'ulik kutayotganini taxmin qilaman, ularni kutib olishga ma'lum darajada tayyorman va har kuni tayyorlanaman. Menga bergan ezgulik va taqvo saboqlari uchun sizga minnatdorchilik bildirishga vaqtim va qog'ozim bor, aslida har doim bo'lgan, ammo shu vaqtga qadar bu e'tiborimdan chetda qolib ketdi, lekin umid qilamanki, hali juda kech emas" [Cunningham, 1855]. Bu ajoyib maktub uning yigirma ikki yoshida yozilgan bo'lib, shoir yoshligiga hamroh bo'lgan kasallik, doimiy mehnat va tashvish tufayli kelib chiqqan asabiylik va bosh og'rig'iga ishora qiladi va ijodkorning

umumiy hamrohi bo‘lgan g‘amginlik va umidsizlik bilan og‘irlashgan hissiyotlari haqida gapiradi.

“Shoir Irvayndan qaytganidan keyingi hayoti xuddi oldingidek mehnatga botgan, yillik xarajati esa yetti funtdan oshmasdi. Ammo shu yillar (1782) davomida u ham she‘rlar, ham qo‘shiqlar yozdi. Shulardan biri baxtsiz hodisadan ta‘sir lanib yozgan “Bechora Mollining o‘limi va so‘nggi so‘zlari” (“*The Death and dying words of Poor Mailie*”) majoziy ertagi haqida ukasi G.Byorns shunday hikoya qiladi: Biz o‘z jamoamiz bilan kunning yarmida dalaga ketayotganimizda, Xyu Uilson (Hugh Wilson) degan bola bezovtalik bilan yonimizga keldi va Molli laqabli ona qo‘yning arqoniga o‘ralib ariqda o‘lib yotganini aytdi. Robert Xyuning holatidan juda ta‘sir landi va shudgordan qaytganimizda shu ajoyib she‘rini aytib berdi” [Chambers, 1856; 2]:

*And now, my bairns, wi' my last breath
I lea'e my blessin wi' you baith:
An' when you think upo' your mither,
Mind to be kind to ane anither.
“Now, honest Hughoc, dinna fail
To tell my master a' my tale;
An' bid him burn this cursed tether,
An', for thy pains, thou'se get my blather.”
This said, poor Mailie turn'd her head,
And clos'd her een amang the dead* [Burns & Cunningham, 1834; 9].

“Bechora Mollining o‘limi va so‘nggi so‘zlari” ertagida jon taslim qilayotgan qo‘y – Mollining noodatiy so‘nggi so‘zlari yoziladi. U Xyu Uilsonning yagona uy hayvoni edi. Uning o‘zbek tilidagi ifodasi quyidagicha:

*Bolalarim, so‘nggi nafasim bilan,
Faqat duoyimni qoldirgum sizga.
Siz meni ozgina o‘ylasangiz gar,
Mehrli bo‘lingiz bir-biringizga.
Jonkuyar Xyu bo‘lmasin taslim,
Unga yetkazinglar ushbu ahvolim,
Yoqsin shuni darhol, qotilim arqon,
So‘ng terim aylasin o‘ziga qalqon.
Boshin qo‘ydi tugatib bor so‘zlarini,
So‘ng yumdi abadiy tun ko‘zlarini.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Ushbu so‘zlar aslida qo‘yga tegishli bo‘lsa-da, unda qashshoqlikdan ezilgan oddiy dehqonning anduhlari yozilgan. Qolaversa, tirikchiligi bittagina qo‘yga bog‘liq bo‘lgan oddiy dehqonning ahvoli endi nima kechadi? Hattoki jon taslim qilayotgan qo‘y ham o‘zidan ko‘proq shu faqir xo‘jayiniga achinmoqda.

*Lament in rhyme, lament in prose,
Wi' saut tears trickling down your nose;*

*Our bardie's fate is at a close,
Past a' remead;
The last sad cape-stane of his woes;
Poor Mailie's dead* [Burns & Cunningham, 1834; 13].

Mollining o'limidan keyin yozilgan ushbu misralar ham shoirning Xyu va Molliga achingan hamdardlik kayfiyatdagi inson suratini chizayotgandek go'yo:

*Ohangda ham nola, she'rim ham giryon,
Ko'zlardan ham yoshlar oqar shashqator,
Bizning shoirning ham qismati ayon,
Xotirlash ba'zida bizga asqotar
Uning so'nggi ohi edi dardli o'q,
Sho'rlik Molli endi yo'q!*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Demak, shoirning hayoti davomida o'lim va qismat singari achchiq hayot haqiqatlari o'rtantirgan. Yosh bo'lishiga qaramay, o'limni bu qadar his etishi, she'rlarida quvonch va ko'tarinki kayfiyat kamdan-kam uchrashi uning mashaqqatli hayotining mahsuli edi.

“*Sevgi va ozodlik: “Kantata yoki “Quvnoq tilanchilar”* (“*The Jolly beggars: A cantata*”) R.Byorns ijodida g'ayrioddiy o'rin tutadi... va ko'pincha tanqidchilar tomonidan Byornsning buyuk durdona asarlaridan biri sifatida baholanadi” [McCue & McKeever, 2023; 684]. “Ushbu asar bir kuni kechki soatlarda shoir do'stalari Jon Richmond (John Richmond) va Jeyms Smis (James Smith)lar bilan Gibson xonimning kamtarona mehmonxonasiga kirishganida o'z ko'zlari bilan ko'rgan voqeaga asoslanadi. Oldinroq shoir bechora tilanchilar orasidagi quvnoqlikka guvoh bo'lgan edi va o'sha uch odam mehmonxonaga qaytib keladi. Shoir ulardagi xushchaqchaqlik, samimiylikdan, ayniqsa, keksa nogiron askarning sho'xligidan zavq oladi. Oradan bir necha kun o'tib Byorns ular haqidagi she'rini do'sti Richmondga aytib beradi” [Chambers, 1856; 182]:

*Chorus
A fig for those by law protected!
Liberty's a glorious feast!
Courts for cowards were erected,
Churches built to please the priest* [Burns, 1873; 467].

“*Quvnoq tilanchilar*” asaridan olingan satrlar zamonasining jirkanch yuzini achchiq kinoya bilan ochib tashlaydi. R.Byornsning qaysi she'rini o'qimaylik, uning qiyinchilik olovida yongan yuragi va zahmatli hayoti ko'z o'ngimizda gavdalanadi:

*Qonunni sotib olganlar, la'nat!
G'alabadir bizga erkinlik faqat!
Sudlar qo'rqoqlar – chun qurildi turfa,
Cherkovlar ruhoniy uchun bir tuhfa.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

Bu misralarda shoir qonun boylarnigina himoya qilishi, sudlar esa og‘ir jazolardan qo‘rqadigan qo‘rqoqlar uchunligi, cherkovlar ruhoniylarning ko‘ngliga qarab ularni xursand qilish uchungina qurilgani yozilgan. Metyu Arnold uning bu asari haqida: “Quvnoq tilanchilar” olamida jirkanchlik va qashshoqlikdan ko‘ra ko‘proq qo‘pollik bor; ammo bu asar ajoyib poetik durdonadir” [Arnold, 1973] degan edi. “Bu asar (“Quvnoq tilanchilar”) uning tengsiz va ulug‘vor shoh asari hisoblanib kelinmoqda. Ammo Byornsning o‘zi uning mavjudligini oshkor etishni xohlamagan va bu asari faqatgina uning o‘limidan keyin nashr etilgan. Asar nashr etilishi bilan katta muvaffaqiyat qozondi” [Daiches, 1994].

“Shoir tushkunligining boshqa sabablaridan biri – Shotlandiya dehqonlarining axloqiy normalari shu qadar qat‘iy va keskin ediki, agar ularning sinfidan kimdir qoidalarni buzib qo‘ysa, hatto eng faqir, ojiza qizlar ham jazosiz qoldirilmasdi, keksalar va taqvodorlar uni yomon ko‘rardilar, unga hamma sovuq va haqorat ko‘zlari bilan qarar, qayg‘u uning taqdiri, falokati oldindan bashorat qilingan, yagona chora hamdardlik edi: “U bundan yaxshiroq nimani ham kutishi mumkin? Byornsning hayotida ham shunday voqea bo‘lgan (Jan Armor (Jean Armour) bilan ishqiy munosabati)” [Cunningham, 1855]. U ham aynan shu ijtimoiy-siyosiy qarashlarning qurboni edi. Xullas, lirik qahramon oddiy, mehnatkash xalqning bittasi, uning fikricha, hech bir narsa kambag‘allar uchun emas. Qanday nohaqlik!

Shunday qilib, R.Byorns qisqa davr mobaynida (1784–1785) “kamyob” shoir sifatida sahnaga chiqdi. U o‘zidagi sevgi, do‘stlik, xursandchilik kabi tuyg‘ularini yoki ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni istehzoli mulohazalari bilan she‘rga aylantira oladigan shoir edi. R.Byorns o‘zi va do‘stlari uchun she‘rlar yozgan bo‘lsa-da, ruhan bezovta va jamiyatdagi hodisalardan norozi edi. U pravoslav diniga qarshi xavfli isyonchi sifatida taniladi. 1786-yilda Jan Armorni sevib qolganida, Shotlandiya qonuni (o‘zaro kelishuv va rozilik asosida oila qurish kerakligi) tufayli otasi, farzand kutayotganligiga qaramasdan, R.Byornsning Janniga uylanishiga ruxsat bermaydi va ularni ahddidan qaytishga ko‘ndiradi [Rabbie, 2022]. Sevgilisidan ayrilgan Robert otasi va Shotlandiya qonunlari oldida ojiz edi.

Uning “Fasllar almashinuvi ta‘rifi bilan boshlanadigan... va tabiatning o‘zgarishi tasviri ikkinchi va uchinchi satrlardan o‘rin olgan” [Carruthers, 2023; 359] “Qizil atirgul” (A red, red rose) she‘ri shu iztiroblar ta‘sirida yozilgan bo‘lsa neajab:

*O my Luve is like a red, red rose
That’s newly sprung in June;
O my Luve is like the melody
That’s sweetly played in tune.
So fair art thou, my bonnie lass,
So deep in luve am I;
And I will luve thee still, my dear,
Till a’ the seas gang dry.
Till a’ the seas gang dry, my dear,
And the rocks melt wi’ the sun;*

*I will love thee still, my dear,
While the sands o' life shall run.
And fare thee weel, my only love!
And fare thee weel awhile!
And I will come again, my love,
Though it were ten thousand mile [Eliot, 1909; 482].*

Ushbu misralar yuqoridagi fikrlarning isboti bo'lishi bilan birga, sevgilisiga nisbatan cheksiz muhabbatli, bir kuni uning yoniga qaytishni umid qilayotgan va ungacha sevgilisiga sog'lik-omonlik tilayotgan oshiqning ayriliq kuyi o'laroq yangraydi:

*O sevgilim, qizil, qizil atirgul,
Iyunda bo'y cho'zib, endi ochilgan.
O mening sevgilim, musiqa kabi,
Yoqimli ohangga solib chalingan.
Sen qancha g'uborsiz, bo'lsang go'zalim,
Mening oshiqligim sengadir shuncha.
Mening muhabbatim yashar azizam,
Dengizlarning suvi quriganicha.
Dengizlarning suvi bitsa, azizam,
Erisa quyoshda muz qoyalar ham,
Senga muhabbatim bitmas azizam,
Tark etsa borliqni yer, soyalar ham.
Sen doim salomat bo'l, sevgilim, faqat,
Sen omon qolsang bas, sen uzoq yasha.
Men qaytib kelaman yoningga albat,
Olis o'lkalar-u makonlar osha.*

(Tarjima maqola muallifiga tegishli – *Sh.D.*)

R.Byorns ko'p o'tmay Meri Kempbel ismli ayol bilan uchrashadi va unga uylanadi, ammo u tez orada vafot etadi. Ayni paytda, fermasi gullab-yashnamayotgan va hal qilib bo'lmaydigan muammolardan bezovta shoir ko'chib ketishni o'ylaydi. Lekin u, birinchi navbatda, o'z mamlakatiga nimalarga qodirligini ko'rsatmoqchi edi. Qiyinchilik bilan u yaqin atrofdagi Kilmarnok (Kilmarnock) shahrida she'rlarining bir jildini nashr etish rejasini amalga oshiradi. U 1786-yilning 31-iyulida yozilgan she'rlar, "Asosan Shotlandiya dialektida" ("*Poems Chiefly in the Scottish Dialect*") deb nomlangan [Rabbie, 2022]. "Uning narxi 3 shilling, adadi 600 nusxada bo'lib, noshiri esa kilmarnoklik Jon Uilson edi" [Irvine, 2016]. Bu kitob tez orada katta muvaffaqiyat qozonadi. Shu bilan birga, R.Byorns ijtimoiy jihatdan o'zidan ancha "yuqorida" bo'lgan juda ko'p ijodkor va boshqa odamlar bilan yozishmalar olib boradi va ular bilan yaqin aloqalar o'rnatadi [Rabbie, 2022]. U ajoyib xat yozuvchi, mohir notiq edi va har qanday vaziyatda o'zini tuta olardi. Ammo shijoat bilan kurashayotgan ijarachi fermerni o'zining ikki xil – ijtimoiy va intellektual salohiyatini oshirishga bo'lgan urinishi charchatib yuboradi. 1791-yilda Damfrisga (Dumfries) ko'chib

o‘tadi va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashaydi. Uning Damfrisdagi hayoti ancha jadal kechadi. Xullas, “ikki yuz yigirma ikki yil muqaddam, janubiy Shotlandiyadagi Damfris shahrida yoshi o‘ttizdan oshgan, og‘ir betob odam o‘zining kamtarin uyida, do‘stlari va oilasi huzurida vafot etadi, homilador xotini va ko‘p sonli farzandlarini tashlab ketdi. Undan she‘r va qo‘shiqlari meros bo‘lib qoldi” [Fraser, 2018; 227].

Demak, shotland shoiri R.Byorns Uilyam va Agnes Byornslarning kamtarona oilasida tug‘ilgan bo‘lsa-da, folklor qo‘shiqlari va balladalarni yoddan biluvchi onasi hamda oddiy dehqon otasi har qanday holatda ham bolalarini yaxshi o‘qitib, ilmi qilib tarbiyalashga harakat qilardi [Yelistratova, 1957; 159]. R.Byornsning bolalik yillari qiyinchilik va sargardonlikda o‘tadi. 1784-yilda R.Byornsning holdan toygan dehqon otasi bankrotga uchrab vafot etadi. Zamonaning adolatsizliklaridan kaltaklangan otasini ko‘rish Robertni o‘z davrining ijtimoiy tuzumiga qarshi isyonchi va insonparvarlik g‘oyalari qarshi kuchlarni qo‘llab-quvvatlovchi yoki davom ettiruvchi har qanday diniy va siyosiy mafkuraga qarshi achchiq satirik shoir sifatida maydonga chiqishiga sababchi bo‘ldi. “Byorns kambag‘al bo‘lib tug‘ildi, ehtiyoj tufayli qora mehnat qildi, u qashshoqlikda bo‘lsa-da halol daromad topdi, ammo zulm uning erksevar aql-zakovatini egsa-da, bo‘ysundira olmadi” [Stewart, 1910]. Shoir XVIII asrning ko‘pgina taniqli ingliz yozuvchilari, shuningdek, Shekspir, Milton, Drayden asarlari bilan yaqindan tanishdi, shotland xalq qo‘shiqlari, ertaklarini sevib tinglaydi va XV asr oxiridagi “Uollas” (“Wallace”) she‘rini zamonaviylashtirdi. Shu tariqa shoir ma‘lum darajada shotland adabiyoti haqidagi bilimlarni egallaydi. U o‘ziga xos she‘riyat yaratib, unda mehnatni, xalqni, erkinlikni, beg‘araz, fidoyi sevgi va do‘stlikni ulug‘ladi. “Uning asarlari Shotlandiya milliyligining ifodasi, Shotlandiya hayoti tasviri va shotland millatini tarannum etdi” [Nash, 1997; 181]. Har bitta asarini tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganish mumkin bo‘lgan shoirning badiiy merosi nihoyatda boy. “Shotlandlar uchun bryus” vatanparvarlik madhiyasi, “Quvnoq tilanchilar” kantatasi, fuqarolik va sevgi tarannum etilgan lirik she‘rlar to‘plami (“Ozodlik daraxti”, “Jon Arpa doni” va boshqalar) muallifi [Aminov va boshq., 2001; 13]. U o‘z ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shotland nasriy va musiqiy folklor namunalarini to‘plab nashr ettiradi. “O‘zining “O‘tmoqdadir vaqt” (Auld Lang Syne) klassik qo‘shig‘i va boshqa durdona asarlari orqali yurtining suyakli o‘g‘loni, xalq shoiri Robert Byorns hech bir shoir erisholmagan natija – XVIII asr shotland tilini dunyoga yoyishga muvaffaq bo‘ldi” [Davies, 2022].

Uning murakkab hayoti va barakali ijod yo‘lining ayrimlarini yorita oldik xolos. “Robert Byornsning she‘r va qo‘shiqlari butun dunyoda son-sanoqsiz muxlislarning ongi va xotiralarida saqlanib qolgan, o‘qilgan, kuylangan, kuch, idrok va ishtiyoq bilan ijro etilgan, minglab, ehtimol, millionlab kishilarga zavq bag‘ishlagan” [Riach, 2018]. Shoirning she‘rlari turli tillarga tarjima qilingan va u haqidagi ko‘plab manbalar mavjud, ularni chuqurroq o‘rganish shoirni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

XULOSA

R.Byorns juda qisqa umr ko‘rdi, ammo shu davr mobaynida o‘zidan o‘lmas she‘rlari-yu qo‘shiqlarini qoldirdi. Aqliy qobiliyat va xarakter egasi bo‘lgan R.Byorns

sinfiy jamiyatda hech qachon o'zini to'liq namoyon eta oladigan muhitni topa olmadi. Shunga qaramay, u Shotlandiya ma'rifatchiligi deb nomlanuvchi madaniy va intellektual g'alayon davrida yashagan. R.Byorns yaratgan ajoyib she'riyat uning noyob iste'dodini ko'rsatdi va uning Shotlandiya xalq shoiriga aylanishiga sabab bo'ldi.

Izlanishlarimiz R.Byornsning hayoti uning ijodi bilan mushtarak degan xulosaga olib keldi. Jumladan, shoir "Vision" she'rida o'zi tug'ilib o'sgan uyning holatini tasvirlar ekan, uy juda yomon ahvolda bo'lishiga qaramay, shoirning qalami uni go'zallashtirganini, shu bilan birga, bu oddiy manzara orqali lirik qahramon xayolotining murakkab psixologik holatini mohirona yarata olganini, shoir bolalik yillaridagi qiyinchiliklar, oilaviy hayoti, o'zi tarbiya topgan, kamol topgan muhit, otasi U.Byorns zahmatlari tasvirini "Two dogs" asarida bayon etganini aniqladik.

Shuningdek, shoir she'riyatiga uning yelkadosh do'stlari, o'zi tuzgan ma'rifiy tashkilot a'zolarining ham ta'siri bo'lgan. Shoirning hayot ma'nosini tushunishga intilishi, bu olamning ko'plab javobsiz savollariga javob topishga intilish jarayonlari ham aynan shu tashkilotda alanganib boradi. Qo'yilgan savollar hamda muhokamalar natijasida shoir she'riyatga qadam tashlay boshlaydi. Shu muhitdan ta'sirlanib yozilgan ilk asarlaridan biri "The Epistle to David Sillar" ("Devid Sillerga maktub") edi. Shuningdek, shoirga ta'lim bergan insonlar, uning ustozlari ham ma'lum darajada shoir ijodida burilish yasaydi. Janet Uilson ta'sirida shoir mifologik she'rlar yoza boshlaydi, shunday ijod na'munalaridan biri esa "Halloween" she'ridir. Yoxud shoirning dono onasi ta'sirida "Man was made to Mourn" asari yoziladi. R.Byorns tabiatan juda ta'sirchan, rahmdil inson bo'lgan. Hayotdagi kichkina ko'ngilsizliklar ham uni o'rtanishiga sabab bo'lib, doimo atrofidagilarning dardlariga sherik bo'lgan, og'ir kunlarida yonlarida turgan. Shunday baxtsiz hodisalardan biri ta'sirida yozilgan she'r "Man was made to Mourn"dir. Shuningdek, lirik qahramon qalbi sevgiga oshufta. U sevib, sevilib yashashga intilgan insondir. Shoir she'rlarida ba'zida sevgisiga yetishganidan entiksa, ba'zan ayriliq azobidagi oshiq sifatida gavdalanadi. Sevgi iztiroblarini boshidan kechirgan ijodkorning sevgilisiga atab yozilgan "A red, red rose" she'ri uning ehtirosli tuyg'ulari bayonidir.

Shoir she'rlariga ajoyib ustamonlik bilan yondashib, ularda so'zlashuv hamda rasmiy uslubdagi so'zlarning ajoyib qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Ammo ijodkorni dunyoga tanitgan janr – uning qo'shiqlaridir. Shotland dialektida ijod qilganiga qaramay, bu qo'shiqlar dunyoga tanildi va shoir nomini abadiyatga muhrladi. Muttasil davom etgan ochlik, kasallik va og'ir mehnat tufayli umri zavol bo'lgan R.Byorns juda qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zidan o'lmas badiiy xazina va o'chmas nom qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov, M., Ahmedov, B., Boboyev, H. (Tahrl.). (2001). *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2-j., Beshik–Gidrofizika). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
2. Arnold, M. (1973). *English literature and Irish politics*. Ann Arbor: The University of Michigan Press.

3. Burns R. (1873). *The poetical works of Robert Burns*. London: Frederick Warne & Co.
4. Burns, R. (1786). *Poems, chiefly in the Scottish dialect*. Scotland: J. M'Kie.
5. Burns, R., & Cromek, R.H. (1808). *Reliques of Robert Burns*. London: Cadell & Davies.
6. Burns, R., & Cunningham, A. (1834). *The Works of Robert Burns*. London: Cochrane and M'Crone.
7. Burns, R., & Cunningham, A. (1859). *The complete poetical and prose works of Robert Burns*. New York: R.Worthington.
8. Burns, R., & Cunningham, A. (1875). *The complete works of Robert Burns*. Boston: Lee and Shepard.
9. Burns, R., & Currie, J. (1843). *The complete poetical works of Robert Burns*. New York: D. Appleton & Company.
10. Burns, R., & Currie, J. (1859). *The complete poetical works of Robert Burns*. New York: D. Appleton & Company.
11. Daiches, D. (1994). *Robert Burns*. Edinburgh: Saltire Society.
12. Davies, C. (2022, January 17). Robert Burns letters reveal poet was advised not to write in Scots. *The Guardian.com*. <https://www.theguardian.com/books/2022/jan/17/robert-burns-letters-reveal-poet-was-advised-not-to-write-in-scots-dialect>.
13. Dougal, J. (2012). Robert Burns and the re-making of national memory in contemporary Scotland. *Authorship, 1*(2). <https://doi.org/10.21825/aj.v1i2.768>.
14. Eliot, Ch.W. (1909). *The poems and songs of Robert Burns*. New York: P. F. Collier & Son.
15. Fraser, H. (2018). A toast to the immortal memory of Robert Burns. "*O'zbekistonda xorijiy tillar*" *ilmiy-metodik elektron jurnali*, 1, 227–230.
16. Irvine, R. (2016, January 25). Robert Burns' publication history. *Rhollick.wordpress.com*. <https://rhollick.wordpress.com/2016/01/25/robert-burns-publication-history/>.
17. Carruthers, G. (2017). Fraternal claims: The brotherhoods of Robert Burns. *Scottish Studies International*, 41, 139–152.
18. Carruthers, G. (2023). Paul Bishop and Robert Burns. *Scottish Geographical Journal*, 139(3–4), 359–362. <https://doi.org/10.1080/14702541.2023.2199712>.
19. Crawford, R. (1997) *Robert Burns and Cultural Authority*. Iowa: University of Iowa Press.
20. Cunningham, A. (1855). *The complete works of Robert Burns*. Boston: Phillips, Sampson and Co.
21. McCue, K., & McKeever, G.L. (2023). 'Cant About Decorum': George Thomson's Singular Edition of Robert Burns's 'The Jolly Beggars'. *The Review of English Studies*, 74(316), 684–696. <https://doi.org/10.1093/res/hgad058>.
22. McDowall, W. (1867). *History of the Burgh of Dumfries*. Edinburgh: A. & C. Black.
23. Nash, A.P. (1997). The cotter's kailyard. In R.Crawford (Ed.), *Robert Burns and Cultural Authority* (pp. 180–197). USA: University of Iowa Press.
24. Obloqulova, Sh. (2015-yil 21-dekabr). Robert Byorn's she'riyati o'zbek tilida. *Yoshlikjurnali.uz*. <https://yoshlikjurnali.uz/mulohaza/robert-byorn-she-riyati-ozbek-tilida/>.
25. Rabbie. (2022, December 12). Robert Burns: His life and legacy. *The Rabbie's Blog*. <https://www.rabbies.com/en/blog/robert-burns>.
26. Riach, A. (2018, August 16). The true worth of Robert Burns's manuscripts. *Apollo Magazine*.
27. Stewart, W. (1910). *Robert Burns and the common people*. Australia: Reformers' Bookstall.
28. Vid, N.K. (2011). Ideological translations of Robert Burns's poetry in Russia and in the Soviet Union. Maribor: Mednarodna založba Oddelka za slovanske jezike in književnosti.
29. Yelistratova, A. (1957). *Robert Berns*. Moskva: Gosudarstvennoye izdatel'stvo khudozhestvennoy literatury.
30. Chambers, R. (Ed.). (1856). *The life and works of Robert Burns*. Edinburgh: W. & R. Chambers.

REFERENCES

1. Aminov, M., Ahmedov, B., Boboyev, H. (Eds.). (2001). *National encyclopedia of Uzbekistan*

- (Vol. 2, Cradle-Hydrophysics). Tashkent: State Scientific Publishing House of ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’.
2. Arnold, M. (1973). *English literature and Irish politics*. Ann Arbor: The University of Michigan Press.
 3. Burns R. (1873). *The poetical works of Robert Burns*. London: Frederick Warne & Co.
 4. Burns, R. (1786). *Poems, chiefly in the Scottish dialect*. Scotland: J. M’Kie.
 5. Burns, R., & Cromek, R.H. (1808). *Reliques of Robert Burn*. London: Cadell & Davies.
 6. Burns, R., & Cunningham, A. (1834). *The Works of Robert Burns*. London: Cochrane and M’Crone.
 7. Burns, R., & Cunningham, A. (1859). *The complete poetical and prose works of Robert Burns*. New York: R. Worthington.
 8. Burns, R., & Cunningham, A. (1875). *The complete works of Robert Burns*. Boston: Lee and Shepard.
 9. Burns, R., & Currie, J. (1843). *The complete poetical works of Robert Burns*. New York: D. Appleton & Company.
 10. Burns, R., & Currie, J. (1859). *The complete poetical works of Robert Burns*. New York: D. Appleton & Company.
 11. Carruthers, G. (2017). Fraternal claims: The brotherhoods of Robert Burns. *Scottish Studies International*, 41, 139–152.
 12. Carruthers, G. (2023). Paul Bishop and Robert Burns. *Scottish Geographical Journal*, 139(3–4), 359–362. <https://doi.org/10.1080/14702541.2023.2199712>.
 13. Chambers, R. (Ed.). (1856). *The life and works of Robert Burns*. Edinburgh: W. & R. Chambers.
 14. Crawford, R. (1997) *Robert Burns and Cultural Authority*. Iowa: University of Iowa Press.
 15. Cunningham, A. (1855). *The complete works of Robert Burns*. Boston: Phillips, Sampson and Co.
 16. Daiches, D. (1994). *Robert Burns*. Edinburgh: Saltire Society.
 17. Davies, C. (2022, January 17). Robert Burns letters reveal poet was advised not to write in Scots. *The Guardian.com*. <https://www.theguardian.com/books/2022/jan/17/robert-burns-letters-reveal-poet-was-advised-not-to-write-in-scots-dialect>.
 18. Dougal, J. (2012). Robert Burns and the re-making of national memory in contemporary Scotland. *Authorship*, 1(2). <https://doi.org/10.21825/aj.v1i2.768>.
 19. Eliot, Ch.W. (1909). *The poems and songs of Robert Burns*. New York: P. F. Collier & Son.
 20. Fraser, H. (2018). A toast to the immortal memory of Robert Burns. *Scientific and Methodological Electronic Journal of ‘Foreign Languages in Uzbekistan’*, 1, 227–230.
 21. Irvine, R. (2016, January 25). Robert Burns’ publication history. *Rhollick.wordpress.com*. <https://rhollick.wordpress.com/2016/01/25/robert-burns-publication-history/>.
 22. McCue, K., & McKeever, G.L. (2023). ‘Cant About Decorum’: George Thomson’s Singular Edition of Robert Burns’s ‘The Jolly Beggars’. *The Review of English Studies*, 74(316), 684–696. <https://doi.org/10.1093/res/hgad058>.
 23. McDowall, W. (1867). *History of the Burgh of Dumfries*. Edinburgh: A. & C. Black.
 24. Nash, A.P. (1997). The cotter’s kailyard. In R.Crawford (Ed.), *Robert Burns and Cultural Authority* (pp. 180–197). USA: University of Iowa Press.
 25. Obloqulova, Sh. (2015, December 21). Poetry of Robert Burns in Uzbek. *Yoshlikjurnali.uz*. <https://yoshlikjurnali.uz/mulohaza/robert-byorns-sheriyati-ozbek-tilida/>.
 26. Rabbie. (2022, December 12). Robert Burns: His life and legacy. *The Rabbie’s Blog*. <https://www.rabbies.com/en/blog/robert-burns>.
 27. Riach, A. (2018, August 16). The true worth of Robert Burns’s manuscripts. *Apollo Magazine*.
 28. Stewart, W. (1910). *Robert Burns and the common people*. Australia: Reformers’ Bookstall.
 29. Vid, N.K. (2011). Ideological translations of Robert Burns’s poetry in Russia and in the Soviet Union. Maribor: International Publishing House of the Department of Slavic

Languages and Literatures.

30. Yelistratova, A. (1957). *Robert Burns*. Moscow: State Publishing House of Fiction.